NODAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARINING ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Shamsikulova Moxina Bonu Furkatovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiuti
moxina0909@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada nodavlat tibbiyot tashkilotlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tadqiqi amalga oshirilgan bo‘lib, nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatlarining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib beruvchi ushbu ko‘rsatkichlarning turli nodavlat tibbiyot tashkiloridagi holati tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, tibbiyot sohasiga oid bo‘lgan ushbu ko‘rsatkichlarning nodavlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritishdagi dolzarb jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *nodavlat tibbiyot tashkilotlari, tibbiy xizmatlar, tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobi, tibbiy xizmatlarga oid xarajatlar buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.*

Bugungi kunda hukumat tomonidan mamlakatda tibbiyot sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, 2026 yil 5 may kunida bir vaqtning o‘zida tibbiyot sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan ikkita hujjat qabul qilindi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida tibbiyot sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha bir qancha maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan: “xususiy sektorning tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdagi ulushini 2030 yilga qadar 30 foizga yetkazish; hududlarda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini va qulayligini oshirish; nodavlat tibbiyot tashkilotlarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash orqali tibbiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish”[20]. Davlat tibbiyot tashkilotlarining nodavlat tibbiyot tashkilotlaridan asosiy farqli jihati shundaki,

[20] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тиббиёт соҳасида хусусий секторни қўшимча қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 май. ПФ-74-сон.

davlat tibbiyot tashkilotlarida rentabellik ko‘rsatkichlari hukumat tomonidan nazoratda bo‘ladi va davlat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar narxi doim nazoratda bo‘ladi. Bu borada mamlakatimizda ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatda “tibbiy xizmatga to‘lov qiymatini belgilashda, rentabellik ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat tannarxining 20 foizidan ortiq bo‘lishi mumkin emas”[21] deb keltirilgan. Normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan ushbu tartib davlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda eng muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida esa, mustaqil faoliyat yuritadigan tashkilot hisoblanganligi bois, mazkur tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar rentabelligi bozor iqtisodiyotiga asoslangan raqobat muhitidan kelib chiqqan holda boshqaruv xodimlari tomonidan mustaqil tarzda belgilanadi. Ushbu jihatlar esa, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar rentabelligi tashkilotning olingan daromadlari va xizmatlarni amalga oshirishda sarflangan xarajatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida amalga oshirilgan tibbiy xizmatlarga oid daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish va bu orqali tashkilot moliyaviy natijalarini yaxshilash, jumladan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan yalpi foydani oshirish nodavlat tibbiyot tashkilotlari oldida turgan eng asosiy va muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda, nodavlat tibbiyot tashkilotlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish maqsadida ushbu sub’ektlar tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari tadqiq etildi va quyidagi jadval ma’lumotlari ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Nodavlat tibbiyot tashkilotlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2025 yil holatida[22]

№	Ko‘rsatkichlar	“Bio Nur Med Servis” MCHJ	“Ixtisoslashtirilgan nullik xizmat va reabilitatsiya markazining gepatalogiya markazi”	“STDHEALTHMED” MCHJ	“Zarmed Pratiksha Hospital Group” MCHJ QK

[21] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.

[22] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

1.	Xizmatlar hajmi, ming so‘m	21 108 641	4 279 152	28 312 499	**48 767 487**
1.1.	shundan, tibbiy xizmatlar, ming so‘m	19 390 687	4 279 152	28 312 499	47 124 681
2.	O‘rinlar soni, birlik	90	60	95	110
3.	Davolangan bemorlar, kishi	8 740	1 985	720	6 865
4.	Bemorlar o‘tkazgan o‘rin-kunlar, birlik	22 240	13 874	3 540	34 325
5.	Vrachlar soni, kishi	28	5	40	95
5.1.	shundan, oliy toifali vrachlar soni, kishi	21	3	7	27
6.	Birinchi marta tashhisi aniqlanib, ro‘yxatga olingan kasalliklar soni	5 200	2 560	15 780	1 926
6.1	shundan, ayollar	1 200	1 507	8 900	1 092
7.	Operatsiya qilinganlar soni, kishi	2 834	0	2 976	1 223
8.	Tekshirilgan (davolangan) shaxslar soni, kishi	55 431	700	58 280	132 597
9.	Bajarilgan tekshiruvlar muolajalar soni, birlik	75 756	2 560	58 564	132 597
10.	Eksport hajmi, ming so‘m	720 000	16 536	0	
10.1.	shundan, Tojikiston fuqarolariga, ming so‘m	600 000	12 300	0	
10.2.	shundan, Rossiya fuqarolariga, ming so‘m	120 000	4 236	0	

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar alohida xususiyatlarga ega, jumladan:

Birinchidan, bugungi kunda nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bir vaqtda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha ham

daromadlar olingan. Xususan, ilmiy izlanishlar davomida tashkilotning amaliy ma’lumotlari tadqiq etilgan “Bio Nur Med Servis” MCHJ tomonidan tashkilotda bo‘sh turgan ob’ektlarni ijaraga berishdan daromadlar olingan. Daromadlar tarkibi tahlil qilinganda aniq bo‘ldiki, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish natijasida olingan daromadlar nodavlat tibbiyot tashkiloti jami daromadlarining 92 %ini tashkil etgan. Tashkilotning boshqa daromadlari ulushi esa, 8 %ni tashkil etganligiga guvoh bo‘lish mumkin. “Zarmed Pratiksha Hospital Group” MCHJ QK nodavlat tibbiyot tashkilotida esa, ushbu ko‘rsatkich yana ham ko‘proq, ya’nitibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha daromadlar ulushi jami daromadlarning 97 %ini tashkil etgan. Shuningdek, tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq etilgan boshqa tashkilotlar hisobotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga oid daromadlar ulushi 100 %ni tashkil etishi qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari bo‘yicha natijalar ushbu tarmoq tashkilotlari moliya-xo‘jalik faoliyatlarida asosiy o‘rin egallaydi. Bu esa, biz tomonimizdan mazkur yo‘nalish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishimizning dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Ikkinchidan, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida mavjud o‘rinlar soni turlicha bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bevosita tibbiyot tashkilotlarining faoliyat yo‘nalishlariga bog‘liqdir. Chunki, tibbiyot tashkilotlarida o‘rinlar soni asosan, davolash xizmatlari tarkibidagi statsionar tibbiy xizmatlarni amalga oshiruvchi nodavlat tibbiyot tashkilotlarida salmoqli hissani tashkil etadi. Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Bio Nur Med Servis” MCHJda 2025 yil holatida tibbiy xizmatlarning hajmi har bir o‘rinlar soniga 217439 ming so‘mni tashkil etgan. Biroq, ushbu tahlil natijasi biror bir iqtisodiy samara beryabdi deb bo‘lmaydi. Chunki, nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi tibbiy xizmatlar amalga oshirilib, aynan davolash xizmatlari yo‘nalishidagi statsionar xizmatlar bo‘yicha xizmatlar miqdori qancha ekanligini amaldagi tartib bo‘yicha tayyorlanadigan buxgalteriya, statistika, soliq yoki nodavlat tibbiyot tashkilotlarining boshqaruv maqsadlaridagi boshqa hisobotlaridan aniqlab bo‘lmaydi. Bu esa, nodavlat tibbiyot tashkilotlari buxgalteriya hisobida tibbiy xizmatlarning analitik hisobini tashkil etishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida davolanish maqsadida yotqizilgan bemorlar bir necha kun statsionar tarzda davolangan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar Bio Nur Med Servis” MCHJda o‘rtacha 2,5 kunni tashkil etgan bo‘lsa, “Ixtisoslashtirilgan pullik xizmat va reabilitatsiya markazining gepatalogiya markazi” nodavlat tibbiyot tashkilotida bu

ko‘rsatkich o‘rtacha 7 kunni, “STDHEALTHMED” MCHJda esa, o‘rtacha 5 kunni tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobida statsionar shaklda amalga oshiriladigan tibbiy xizmatlar bo‘yicha har bir kun uchun bitta o‘rinning tannarxini aniqlash orqali nodavlat tibbiyot tashkilotlarida statsionar tibbiy xizmatlarning eng optimal narxini belgilash zaruriyati mavjud.

To‘rtinchidan, tibbiy xizmatlar tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshirilib, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida bunday xodimlarga oliy va boshqa toifadagi vrachlar, o‘rta tibbiy xodimlar, hamshiralar kiradi. Mazkur xodimlar nodavlat tibbiyot tashkilotlarida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarida ishtirok etishlari mumkin. Bu esa, nodavlat tibbiyot tashkilotlarida har bir xodimning tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlaridagi ta’sirini aniqlash orqali tibbiy xizmatlar tannarxini hisob-kitob qilish, bunda tibbiyot xodimlari mehnat haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etishning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Beshinchidan, tadqiqotlar davomida nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan jarrohlik xizmatlarini ko‘rsatish natijasida amalga oshirilgan operatsiyalar soni salmoqli hissani tashkil etib, ushbu tibbiy xizmatlar ulushi boshqa tibbiy xizmatlar ulushidan kattaroq hissani tashkil etishi aniqlandi. Demak, ushbu tibbiy xizmat turi bo‘yicha ko‘rsatkichlar nodavlat tibbiyot tashkilotlari boshqaruv xodimlari uchun strategik ahamiyatga ega qaorlarni qabul qilishlari uchun muhim bo‘lib, mazkur tadqiqot ishida jarrohlik xizmatlari buxgalteriya hisobini boshqa davolash xizmatlaridan ajratilgan holda alohida yuritish maqsadga muvofiq deb topildi.

Oltinchidan, nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tarkibida boshqa mamlakatlar fuqarolariga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, Bio Nur Med Servis” MCHJ, “Ixtisoslashtirilgan pullik xizmat va reabilitatsiya markazining gepatalogiya markazi” nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan tojikistonlik va rossiyalik fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu nodavlat tibbiyot tashkilotlarida eksport hajmi ulushi jami xizmatlar hajmiga nisbatan salmoqli hissani tashkil etganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan daromadlar tarkibida eksport qilingan xizmatlar hajmini ajratgan holda buxgalteriya hisobini yuritish ushbu tarmoq tashkilotlari moliyaviy natijalari shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Olib borilgan yuqoridagi tadqiqotlar davomida umumiy ilmiy xulosa qilinadigan bo‘lsa, bugungi kunda nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ushbu tibbiy

xizmatlarning har bir turi bo‘yicha buxgalteriya hisob-kitoblarini alohida yuritish orqali barcha turdagi hisobot shakllarida, jumladan moliyaviy hisobotlarda shaffof yoritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda, albatta, nodavlat tibbiyot tashkilotlari tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini tizimli ravishda yuqorida zikr etilgan tartiblarga muvofiq tashkil etish zaruriyati mavjud bo‘lib, ushbu jihatlar mazkur tadqiqot ishining dolzarb jihatlarini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026 yil 05 may. PF-74-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Pullik tibbiy xizmat ko‘rsatadigan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2025 yil 27 yanvar. 3603-son.

3. Boronov B. F., Xudaynazarova D. G., Yodgorov X. M. Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari // FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY. — 2025. — Vol. 1, № 1. — P. 282–289.

4. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Нодавлат Таълим Ташкилотларида Даромадлар Ҳисобининг Илмий назарий Асослари." *Economic Development and Analysis* 3.5: 288-294.

5. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Республика Миллий Иқтисодиётини Ривожлантиришда Нодавлат Олий Таълим Ташкилотларининг Ўрни Ва Аҳамияти." *Economic Development and Analysis* 3.8: 167-173.